JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH | 2024

ISSN: 2181-4031

IMFAKTOR
Science driven pages

Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ- II, НОМЕР-3

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2024

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 3 (2024) DOI http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2024-3

Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
2. Ходжаметова Гулчира Илишевна – тарих фанлари номзоди, профессор
3. Ҳайдаров Ўрал Ахмадович – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD), доцент
4. Мусаев Джамалиддин Камалович – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент
5. Жамолдинов Хумоюн Бахтиёрбек ўғли – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент в.б
6. Узакова Зарина Фуркатовна – социология ф.б.ф.д (PhD), доцент
7. Мамадияров Дилшод Уралович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент
8. Тўраев Шавкат Нишонович – фалсафа фанлари номзоди, доцент
9. Бердиева Гулмира Аминовна – тарих фанлари номзоди
10. Гаипов Жасур Бахром ўғли – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD)
11. Сохибова Лола Жонибоевна – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
12. Шарипов Дилшод Бахшиллоевич – сиёсатшунос, эксперт
13. Содиржонов Мухриддин Махамадаминович – социология ф.б.ф.д (PhD)
14. Саттаров Дилшод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент
15. Турақулов Акмалжон Анварович – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
16. Каримов Бозарқул Худдайбердиевич – фалсафа фанлари номзоди

“Фундаментал тадқиқотлар” илмий-амалий журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.5 “импакт-фактор” кўрсатгичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “IMFAKTOR Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ISSN: 2181-4031
www.imfaktor.uz

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ABDURASULOV Muhammadqodir Abdurasulovich
Andijon viloyat yuridik texnikumi
katta o'qituvchisi

ABDURASULOV Xolmuhammad Muhammadqodir o'g'li
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi
tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.10874844

INSON HUQUQLARI BO'YICHA QO'MITA VA O'ZBEKISTON: XALQARO MAJBURIYATLARNING IJRO ETILISHI MASALASI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning ijro etilishi proseduralari, inson huquqlari bo'yicha qo'mita faoliyati va unda O'zbekistonning ishtiroki bo'yicha tahliliy fikrlar bayon etilgan. Bu maqolada, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning ijro etilishi proseduralari, inson huquqlari bo'yicha qo'mita faoliyati va unda O'zbekistonning ishtiroki bo'yicha tahliliy fikrlar bayon etilgan bo'libgina qolmay, atroflicha va ayni damda to'g'ri yondoshishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, xalqaro majburiyatlar, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, inson huquqlari qo'mitasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar, tahliliy fikrlar, inson huquqlari bo'yicha qo'mita faoliyati.

КОМИТЕТ ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА И УЗБЕКИСТАН: ВОПРОС ИСПОЛНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье изложены аналитические соображения относительно международного пакта о гражданских и политических правах и процедур его исполнения, деятельности Комитета по правам человека и участия в нем Узбекистана. В данной статье не только изложены аналитические соображения относительно международного пакта о гражданских и политических правах и процедур его исполнения, деятельности Комитета по правам человека и участия в нем Узбекистана, но и дан исчерпывающий и в то же время правильный подход.

Ключевые слова: права человека, международные обязательства, Международный пакт о гражданских и политических правах, комитет по правам человека, гражданские и политические права, аналитические соображения, деятельность Комитета по правам человека.

COMMITTEE ON HUMAN RIGHTS AND UZBEKISTAN: THE ISSUE OF ENFORCEMENT OF INTERNATIONAL OBLIGATIONS

ANNOTATION

This article describes the International Covenant on civil and political rights and the Proceedings of its enforcement, the activities of the committee on human rights and analytical opinions on the participation of Uzbekistan in it. This article will not only describe the International Covenant on civil and political rights and the Proceedings of its implementation, the activities of the committee on human rights and analytical opinions on the participation of Uzbekistan in it, but will also focus on a thorough and at the same time correct approach.

Keywords: human rights, international obligations, International Covenant on Civil and Political Rights, Human Rights Committee, civil and political rights, analytical opinions, human rights committee activities.

1945-yilda San-Fransiskoda bo‘lib o‘tgan konferentsiyada Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topgandan so‘ng inson huquqlariga oid universal hujjat sifatida “Insonning asosiy huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya” ishlab chiqish taklif qilingan va bu vazifa Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga yuklangan edi. Jarayonning boshida hujjat inson huquqlarining umumiy tamoyillari bayon etilgan deklaratsiyaga hamda a’zo davlatlar rioya etilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarni o‘z ichiga olgan konventsiya yoki paktga bo‘lingan edi. Birinchisi “Insonning asosiy huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya”ga aylandi va 1948-yil 10-dekabrda qabul qilindi [1].

Konventsiya loyihasini ishlab chiqish davom etdi, biroq BMT a’zolari o‘rtasida fuqarolik va siyosiy hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning nisbiy ahamiyati bo‘yicha sezilarli tafovutlar keltirib chiqardi. Munozaralar oxir-oqibat konventsiyaning ikkita alohida paktga bo‘linishiga sabab bo‘ldi: “biri fuqarolik va siyosiy huquqlarni, ikkinchisi esa iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni o‘z ichiga oldi”. Ikkila hujjat ham imkon qadar o‘xshash qoidalarni o‘z ichiga olishi va bir vaqtning o‘zida imzolash uchun ochiq bo‘lishi kerak edi. Har birida barcha xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi to‘g‘risidagi qoidalar ham bo‘lar edi [2].

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2200A (XXI) rezolyutsiyasi bilan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan va 1976-yil 23-martda yoki o‘ttiz besh davlat tomonidan ratifikatsiya qilinganidan so‘ng kuchga kirdi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt VI qism, 53-moddadan iborat bo‘lib, shaxsning huquq va erkinliklarini hukumatlar, ijtimoiy tashkilotlar va xususiy shaxslar tomonidan buzilishidan himoya qiladigan, jamiyat va davlatning fuqarolik va siyosiy hayotida kamsitish va repressiyalarsiz ishtirok etish imkoniyatini ta’minlaydigan huquqlarni o‘zida ifoda etadi.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur Xalqaro paktga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127-I-sonli «1966 yil 16 dekabrdagi fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga qo‘shilish haqida»gi qaroriga asosan qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VI – VIII boblari bilan ushbu huquqlar milliy darajada muhofaza qilingan [3].

Shuningdek, paktning mazmuniy davomi sifatida unga qo‘shimcha ikkita Fakultativ protokol ilova qilingan. Birinchi Fakultativ protokolda paktga a’zo davlatlar yuridiksiyasi ostida bo‘lgan shaxslarning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda aks etgan huquqlaridan biri yoki bir nechtasining buzilganligi yuzasidan shikoyat berish proseduralari bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur Bayonnomaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 128-I-sonli “1966-yil 16-dekabrdagi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga doir fakultativ bayonnomaga qo‘shilish haqida”gi Qaroriga asosan qo‘shilgan.

1989-yil 15-dekabrda paktning Ikkinchi fakultativ protokoli qabul qilindi. Unda yashash insonning uzviy huquqi ekanligi kafolatlanib, Protokol ishtirokchi-davlatlarining yurisdiksiyasiga kiruvchi hech bir shaxs o‘lim jazosiga hukm qilinishi mumkin emasligi kafolatlandi. O‘zbekiston Respublikasi mazkur Ikkinchi fakultativ Protokolga O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 10-dekabrdagi O‘RQ-185-son “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga doir, o‘lim jazosini bekor qilishga qaratilgan Ikkinchi fakultativ Protokolga qo‘shilishi haqida”gi Qonuniga asosan qo‘shilgan [4].

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga ko‘ra mazkur paktda belgilangan qoidalar doimiy nazorat qilinishini talab etilishi inobatga olinib, bu vazifalarni doimiy asosda amalga oshiruvchi institut sifatida Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi.

Inson huquqlari qo‘mitasi 1977-yilda ta’sis etilgan. Paktning IV qismi (28-45-moddalar) da Qo‘mitaning tashkiliy-huquqiy asoslari va vakolatlari belgilangan. Qo‘mita tarkibi 18 a’zodan iborat bo‘lib, qatnashchi davlatlar ulami o‘z fuqarolari orasidan saylaydilar. Qo‘mita a’zolarining o‘z vazifalarini amalga oshirishi ularning shaxsiy fazilatiga asoslanadi [5].

Hozirda Qo‘mitaga 5 mintaqadan 174 ta a’zo davlatlar 14 turdagi hujjatlar taqdim qiladi [6]. Qoidaga ko‘ra, Qo‘mita har yili Jenevada uchta sessiya o‘tkazadi.

Davlatlar Paktga qo‘shilganidan keyin bir yil o‘tgach, so‘ngra Qo‘mita so‘raganda (odatda har besh yilda) hisobot berishlari kerak. Qo‘mita odatda BMTning Jenevadagi (Shveytsariya) bo‘limida yig‘iladi va odatda yiliga uchta sessiya o‘tkazadi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktni ratifikatsiya qilgan barcha davlatlar inson huquqlarining hayotga tadbiq etilishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish bo‘yicha mavjud holatni aks ettirgan davriy ma’ruzalar taqdim ertib boradilar. Davlat tomonidan taqdim etilgan ma’ruzalar, avvalo, Qo‘mitaning besh kishidan ortiq bo‘lmagan ishchi guruhi tomonidan o‘rganib chiqiladi. Bu jarayonlardan so‘ng tegishli davlat vakillari ishtirokida ochiq majlis o‘tkaziladi. Unda nohukumat tashkilotlaridan va matbuotdan ishtirokchilar kuzatuvchi sifatida qatnashishlari mumkin. Majlis davomida davlat vakillari Qo‘mita a’zolarining savollariga javob beradilar. Majlisda tegishli davlat vakillari o‘z hukumatidan kerakli ma’lumotlar bo‘yicha maslahat olish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Agar Qo‘mita a’zolarida o‘rtaga tashlangan savollarga javob yetarli bo‘lmasa, tegishli davlatga ushbu masalalar yuzasidan yozma shaklda javob yo‘llash imkoniyati beriladi [7].

Muayyan davlatning ma’ruzalarini ko‘rib chiqish davomida, Qo‘mita turli manbalarga murojaat qiladi: boshqa inson huquqlari organlari, maxsus ma’ruzachilar, ishchi guruh va nohukumat tashkilotlari ma’ruzalariga tayanadilar. Ma’ruzalar ochiq majlislarda ko‘rib chiqiladi va har bir ma’ruzaning ko ‘rilganligi yuzasidan yakuniy “universal tavsiyalar”lar qabul qilinadi.

Shu kunga qadar, O‘zbekiston tomoni besh marta davriy hisobotlarini Qo‘mitaga topshirgan topshirgan. 2020 yil 2-3 mart kunlari BMT Inson huquqlari qo‘mitasining 128-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt qoidalarini bajarishi bo‘yicha Beshinchi davriy hisoboti ko‘rib chiqildi.

BMT Inson huquqlari qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasining BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt qoidalarini bajarishi bo‘yicha Beshinchi davriy hisoboti yuzasidan o‘zining 26 ta tavsiyalarda iborat bo‘lgan yakuniy xulosalarini taqdim etdi.

Bugungi kunda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt qoidalarini bajarishi bo‘yicha Beshinchi davriy hisoboti yuzasidan BMT Inson huquqlari qo‘mitasining bergan tavsiyalarini bajarish yuzasidan Milliy harakatlar rejasi loyihasi ishlab chiqilgan.

REFERENCES. ИҚИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so‘zi” gazetasi. № 19 (7490), 2020 yil, 25 dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-dekabrdagi PQ-4056-sonli “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi Qarori. https://lex.uz/docs/-4098056

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ustavi. https://www.un.org/ru/charter-united-nations/

4. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr. Nyu-York.

5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. 1966-yil 16-dekabr.

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-20596

7. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-518-son Qonuni. http://lex.uz/docs/4193761

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «**IMFAKTOR Pages**» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz